XALQ DEPUTATLARI BULUNG‘UR TUMAN KENGASHINING

Q A R O R I

2022 - yil 10 - avgust VI-68-139-7-93-K/22 Bulung’ur tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-va 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidan mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

Tuman hokimining o‘rinbosari A.Buriboyevning bildirgisiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-maydagi “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini zamonaviy yagona maktab formasi bilan ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 271-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Bulung‘ur tumanida mavjud umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan kam ta’minlangan deb e’tirof etilgan oila farzandlari uchun 436 ta maktab formasi sotib olish uchun 109 000 000 (bir yuz to‘qqiz million) so‘m hamda energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish maqsadida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 15 nafariga quyosh panellari va 10 nafariga quyosh suv isitish qurulmalarini sotib olish uchun 208 190 000 (ikki yuz sakkiz million bir yuz to‘qson ming) so‘m mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratishda amaliy yordam so‘ragan. Ushbu bildirgiga tuman moliya bo‘limining 2022-yil 5-avgustdagi 01/02-32/185-sonli javob xatida umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan kam ta’minlangan deb e’tirof etilgan oila farzandlari uchun 436 ta maktab formasi sotib olish uchun 109 000 000 (bir yuz to‘qqiz million) so‘m miqdoridagi mablag‘larni tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 15 nafariga quyosh panellari va 10 nafariga quyosh suv isitish qurulmalarini sotib olish uchun 208 190 000 (ikki yuz sakkiz million bir yuz to‘qson ming) so‘m miqdoridagi mablag‘larni tuman mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan saxovat va ko‘mak jamg‘armasiga o‘tkazish haqidagi tavsiya xatini yozgan.

Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri A.Shokirovning bildirgisiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashning mahalliy Kengash deputatlari o‘rtasida “Parlament o‘yinlari” sport musobaqalarni tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risidagi 2020-yil 30-dekabrdagi KQ-173-IV-sonli qarori asosida Respublika miqyosida “Parlament o‘yinlari” sport musobaqalarni o‘tkazilib kelinmoqda.

Xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining deputatlar jamoasi “Parlament o‘yinlari” sport musobaqalarining “Mini-futbol” turi bo‘yicha mintaqaviy bosqichida birinchi o‘rinni egallab Respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. Shu munosabat bilan “Parlament o‘yinlari” sport musobaqalarining Respublika bosqichida ishtirok etish uchun jamoa a’zolari va murabbiy uchun sport formalari, Toshkent shahriga borish-kelish va mehonxona xarajatlari uchun 38 000 000 (o‘ttiz sakkiz million) so‘m mablag‘ ajratishda amaliy yordam so‘ragan. Ushbu bildirgiga tuman moliya bo‘limining 2022-yil 8-avgustdagi 01/02-38/188-sonli javob xatida xarajatlari uchun 38 000 000 (o‘ttiz sakkiz million) so‘m mablag‘larni tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratishni tavsiya etgan.

Yuqorida bayon etilganlarni inobatga olib O‘zbekistan Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltmish sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Buriboyev, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari D.Xabibullayevning 02/02-707-sonli va 02/02/709-sonli aloqa xatlari, xalq deputatlari tuman Kengashining kotibiyati mudiri A.Shokirov bildirgilari hamda tuman moliya bo‘limining 2022-yil 01/02-32/185-sonli va 02/02/709-sonli xulosa xatlari ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2.Bulung‘ur tumani hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev), tuman hokimligi Moliya bo‘limi (J.Narziyev), tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (E.Niyozov)larga:

umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan kam ta’minlangan deb e’tirof etilgan oila farzandlari uchun 436 ta maktab formasi sotib olish uchun 109 000 000 (bir yuz to‘qqiz million) so‘m miqdoridagi mablag‘larni tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak daromatlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratilsin;

ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 15 nafariga quyosh panellari va 10 nafariga quyosh suv isitish qurulmalarini sotib olish uchun 208 190 000 (ikki yuz sakkiz million bir yuz to‘qson ming) so‘m miqdoridagi mablag‘larni tuman mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan jami mahalliy budjetining 2022-yil 1 va 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan 317 190 000 (uch yuz o‘n yeti million bir yuz to‘qson ming) so‘m saxovat va ko‘mak jamg‘armasi hisobiga o‘tkazilsin;

xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining deputatlar jamoasi “Parlament o‘yinlari” sport musobaqalarining “Mini-futbol” turi bo‘yicha Respublika bosqichida ishtirok etish uchun jamoa a’zolariga sport formalari, Toshkent shahriga borish-kelish va mehonxona xarajatlari uchun 38 000 000 (o‘ttiz sakkiz million) so‘m mablag‘lari tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Namozov) hamda ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.Astonov**